



# **Kirill alifbosidagi E, Ё, Ю, Я, Ц harflarining o‘zbek-lotin alifbosida yozilishi**


- ▶ E, Ё, Ю, Я harflari ikki nutq tovushi: y+e, y+o, y+a, y+u tovushlarining birikuvidan hosil bo‘ladi. Shu sababli ularni ifodalash uchun alohida harfiy belgi qabul qilinmagan. Bu harflar birikmasi o‘zbekcha so‘zlarda istagan bo‘g‘inda kelishi mumkin: so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida.
- ▶ Ye: yetti – етти, Aliyev – Алиев;  
Yo: yozuv – ёзув, Sayyora-Sayёра, dunyo – дунё;  
Yu: buyuk – буюк;  
Ya: yagona – ягона, tayanch-таянч, tuya – туя.



► Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvida so‘zlar, asosan, qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi. Shunga ko‘ra, ye tovushi ikki undosh orasida ochiq e unlisini bildiradi va shunday yoziladi: ber, ter, kel, sher, devor kabi. Kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida Цц ruscha o‘zlashma so‘zlarda qo‘llanadi. U lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida s yoki ts bilan ifodalanadi.

- Ruscha o‘zlashma so‘zlarda ye, yo, yu, ya harflarining ifodalanishi. Ruscha o‘zlashma so‘zlarda mazkur to‘rt harf qoida asosida ikki xil vazifada qo‘llanadi.
1. a) bu harflar so‘zning boshida yoki unli tovushdan keyin kelganida ikki nutq tovushini ifodalaydi, chunonchi: yubka, iyun, armiya, mayor, menyu, yogurt, yepiskop so‘zlaridagi kabi;
  - b) ye, yo, yu, ya harflari ayirish belgisidan hamda ayirish belgisi vazifasida qo‘llangan yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi, chunonchi: адъютант - adyutant, премьера – premyera, пьеса – pyesa, ателье – atelye so‘zlaridagi kabi.

- 
- ▶ 2. Ruscha o‘zlashma so‘zlarda ye, yo, yu, ya harflari undosh tovushlardan keyin kelganida bir unli tovush, ya’ni a, u, o yoki e tovushiday aytiladi va yoziladi. Masalan: сентябрь – sentabr, октябрь – oktabr, глюкоза – glukoza, режиссёр – rejissor. Bunday so‘zlardan mazkur qoidalar doirasiga kirmaydiganlari ham bor. Ularning qanday yozilishi imlo lug‘atlarida ko‘rsatiladi. Masalan: samolyot, montyor so‘zlaridagi kabi.

- 
- ▶ Quyidagi soʻzlarning yozilishini yodda saqlang. Бронетранспортёр-bronetransportyor, бюджет –budget, костюм- kastum, вертолёт- vertolyot, Люксембург- Luksemburg, люкс- luks, гипюр- girur, миномёт- minomyot, моллюска- molluska, дублёр- dublor, плюс- plus, ингалятор- ingalator, иллюзия- illuziya, парашют- parashut, иллюминатор- illuminator, пляж- plaj самолёт samolyot, салют- salut, сюжет –sujet.

► Kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida Цц ruscha o‘zlashma so‘zlarda qo‘llanadi. U lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida s yoki ts bilan ifodalanadi.

► Lotin yozuvida Цц undoshi quyidagi hollarda “s” bilan ifodalanadi:


a) so‘z boshida: sirk, sement, sentner kabi;

b) so‘z o‘rtasida undosh tovushdan keyin: konstruksiya, direksiya, induksiya, deduksiya, aksent, ssenariy kabi;

d) so‘z oe) old qo‘shimchadan keyin: telesentr, antisiklon, episentr kabi;

f) so‘z boshida a mustaqil bo‘g‘in bo‘lib kelganda: asetona, asetilina, asetat kabi.

2. So‘z o‘rtasida ikki unli tovush orasida “ts” yoziladi: assimilatsiya, dissimilatsiya, kalkulyatsiya, Sitseron, assotsiatsiya kabi. xirida: abzas, shpris, kvarts kabi;

- 
- ▶ Familiyalar imlosi XX asr boshlariga kelib tilimizda familiyalarni ko'rsatuvchi o'zlashma qo'shimchalar paydo bo'ldi.
  - ▶ Bular: -ov, -ova, -yev, -yeva, -ev, eva qo'shimchalaridir. Ular kishi ismiga qo'shilib, familiyalarni hosil qiladi. Masalan: Yunusov, Saidova, Rahmatullayev, Mirzayeva, Ergashev kabilar.